

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOVA ZULAYXO ABDUJOBIR QIZI

**YER VA MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi

Yer va mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish mexanizmini
takomillashtirish..... 3

Турсунова Зулайхо Абдужобир қизи

Совершенствование механизма исчисления и взимания земельного и
имущественного налога..... 27

Tursunova Zulaykho Abdujobir kizi

Improving the mechanism for calculating and collecting land and property
taxes..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOVA ZULAYXO ABDUJOBIR QIZI

**YER VA MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.I.PhD/Iqt5082 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziyounet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Salpnazarov Sherbek Shaylavbekovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Xusanov Durbek Nishonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Xolov Nabijon Qaxramonovich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «18» 10 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (+99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (93 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (+99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «02» 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil «14» 06 dagi 35 raqamli restr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mahalliy budjetlarning soliqli daromadlarini barqaror tushumini ta'minlash soliqlar yig'iluvchanlik darajasini yanada oshirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT)ga a'zo davlatlar tajribasi mahalliy soliqli daromadlar ulushining YaIMdagi ko'rsatkichi mamlakatlar bo'yicha sezilarli farq qilishini ko'rsatadi: "Shvetsiyada 15,2 foiz, Daniyada 12,0 foiz, Yaponiyada 7,4 foiz, Belgiyada 2,1 foiz, Chexiyada 1,7 foiz, Avstriyada 1,3 foiz va Gretsiyada 1,0 foiz"¹. Mazkur tafovutlar fiskal markazlashuv darajasi, soliqlarni hududlar kesimida taqsimlash tamoyillari hamda interbudjet munosabatlaridagi vakolatlar taqsimotiga bog'liq. Demakki, mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish va ularning barqarorligini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy mustaqillikni oshirish uchun soliqli daromadlar tarkibi, ularni boshqarish mexanizmlari va ma'muriy jarayonlarni kompleks ravishda takomillashtirish talab etiladi. Bunda shaffoflik, kadastr va soliq ma'lumotlarining integratsiyasi, soliq imtiyozlarini maqbullashtirish hamda transferlarni aniqlash asosida ajratilishi mahalliy fiskal barqarorlikning institutsional poydevorini mustahkamlaydi. Mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish va ularning barqarorligini ta'minlash va mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishda soliqli daromadlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xalqaro amaliyotda yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash hamda undirish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlar, ushbu soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ko'chmas mulk solig'ini joriy etish bilan mahalliy budjet daromadlarini to'ldiruvchi manba sifatida soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmlarini soddalashtirishga xizmat qilgan. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash xususiyatlari, mahalliy budjet daromadlarini oshirishda ko'chmas mulk solig'idan oqilona foydalanish usullari hamda soliqlarning soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatiga ta'sirini chuqur tahlil etish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi kuzatiladi. Shu sababli, ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining mohiyati, tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni soliqlar mexanizmi orqali rag'batlantirish, soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli va teng taqsimlashga asoslanadi. Shuningdek, barcha toifadagi soliq to'lovchilarni resurs soliqlarini to'lash tizimiga o'tishga undash va shu borada «har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga ega yirik korxonalar hissasini hisobga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish» masalalariga qaratilgan. Mol-mulk va yer maydonlariga ilmiy asoslangan soliq siyosatini joriy etish ushbu islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mol-mulk va tabiiy resurslarni ilmiy asoslangan soliqqa tortish jarayonida xo'jalik subyektlari tasarrufidagi mol-mulk va yer

¹ https://read.oecd-ilibrary.org/taxation/revenue-statistics-2021_6e87f932-en#page32

resurslarini samarali boshqarishni rag'batlantirish, shuningdek, mahalliy budjetlar daromadlarini barqarorlashtirishda ushbu soliqlar ulushini oshirish masalalari iqtisodiy tadqiqotlarda dolzarb muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar va tahlillarning yetishmasligi iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari orasida muhim bahs-munozaralar va ilmiy tadqiqotlar maydoni yaratib, mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Shu sababli, mol-mulk va tabiiy resurslarni soliqqa tortish bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish va ushbu yo'nalishdagi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida ko'rilmogda, tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi, "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-dekabrda PF-5283-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yer va mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish masalasining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar G.Colm, J.Mintz, G.Nicodème, E.Shkrebela, S.Bo'kova, R.Grey, N.Tankus, S.Bank, S.Pollack, A.Tatuyko, M.Knoll, O.Pinto, M.Abdellatif, N.László, C.Catalina, R.Margareta, C.Pöschel va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan². Mahalliy budjet daromadlarini

² Colm, G. Conflicting Theories of Corporate Income Taxation. Law and Contemporary Problems, 7(2), 281; Mintz, J.M. Globalization of the Corporate Income Tax: The Role of Allocation, in: FA 1999, pp. 389-423; Nicodème, G. (2009). Corporate Income Tax and Economic Distortions, Taxation papers, Directorate General for Taxation and Customs Union, EC, 1-19; Шкребела Е.В. Теоретические аспекты налогообложения прибыли: диссертация кандидата экономических наук: - Москва, 2013; Быкова С.Н. Налогообложение прибыли организаций и предпринимательская активность. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – М., 2006; Grey R., Tankus N., Corporate Taxation in a Modern Monetary Economy: Legal History, Theory, Prospects. SSRN Electronic Journal, January 2017; Steven A. Bank, Entity Theory as Myth in the Origins of the Corporate Income Tax, 43 Wm. & Mary L. Rev. 447 (2001). Sheldon D. Pollack, Origins of the Modern Income Tax, 1894–1913. The

shakllantirishda yer va mol-mulk soliqlarining umumiy jihatlari O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vahobov, A.Jo‘rayev, N.Kuziyeva, O.Meyliyev, E.Gadoyev, M.Almardanov, B.Toshmurodova, N.Ashurova, Q.To‘xsanov, U.Normurzayev, U.Xamroyev va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Yer va mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan Sh.Toshmatov, Q.Bazarov, S.Boymurodovlarning ilmiy ishlarida alohida tadqiqotlar olib borilgan³.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Toshmatov, T.Malikov, N.Haydarov, M.Alimardanov, B.Toshmurodova, E.Gadoyev, Q.Xoshimov, N.Quziyeva, O.Iminov, O.Olimjonov, A.Jo‘rayev, Q.To‘xsanov, N.Yuldasheva va I.Turaboyevlarning ilmiy ishlarida mahalliy soliqlarning, xususan, yer va mol-mulk soliqlarni takomillashtirish munosabatlarining ayrim nazariy va amaliy jihatlari o‘z aksini topgan⁴.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot

Tax Lawyer Vol. 66, No. 2 (WINTER 2013), pp. 295-330; Татуйко А.В. Эволюция налога на прибыль в России // Гуманитарные научные исследования. 2014. № 10; Knoll, Michael S., The Corporate Income Tax and the Competitiveness of U.S. Industries. (2010) Faculty Scholarship. Paper 248; Porter, M. E., Delgado, M., Ketels, C. & Stern, S. Moving to a new global competitiveness index; Pinto, O. (2016). Tax Factors affecting International Competitiveness: Canada vs. United States Perspective. International Journal of Business and Social Science. Vol. 7, No. 12; December 2016; Abdellatif, M., (2011) “The Effect of Tax Policy on Country’s Competitiveness: A Case Study of Income Taxation of Intellectual Property in Egypt and India; László Nagy, (2017) “Impact of the Tax System on the Competitiveness of Businesses and Capital Inflow. International comparison within the CEE region”, Public Finance Quarterly, State Audit Office of Hungary, vol. 62(1), pages 22-38; Catalina C., va Margareta R. (2015). The EU tax treatment competition for knowledge based capital – the special case of R&D. Procedia Economics and Finance 32 (2015) 817 – 825; Pöschel Carla., (2019). “Incentive Effects of R&D Tax Incentives – A Meta-Regression Analysis Focusing on R&D Tax Policy Designs,” arqus Discussion Papers in Quantitative Tax Research 243, arqus - Arbeitskreis Quantitative Steuerlehre.

³ Toshmatov Sh.A. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2008; Bazarov Q.T. Korxonalar foydasidan olinadigan soliq mexanizmidagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 1998;Xamroyev U.M. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishda soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish masalalari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2024; Eshonov M.A. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foйда) va mol-mulk soliqlarini takomillashtirish masalalari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Andijon, 2006; Sobirov Sh.M. Foyda solig‘i va uning tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatiga ta‘siri: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008.

⁴ Alimardonov M.Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga soliq tizimining ta‘siri. Monografiya.-T.: TMI, 2003; Sh.A. Korxonalarini rivojlantirishda soliqlarning roli. Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2008. -204 b.; Shernaev A.A. Davlat byudjeti solikli daromadlarining o‘rta muddatli istiqbolini belgilash masalalari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2009. -20 b.; Musagaliev A.J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2009. -23 b.; Ergashev I.O. Milliy bozorni himoyalashda aksiz solig‘ini hisoblash uslubiyotini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2011. -22 b.; Sobirov Sh.M. Foyda solig‘i va uning tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatiga ta‘siri. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2008. -20 b.; Urmonov J.J. Kichik biznesni rivojlantirishda soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasidan samarali foydalanish istiqbollari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2010. -23 b.; Jo‘raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. –T.: Fan, 2004. -224 b.; Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. –T.: Yangi asr avlodi, 2002. -128 b.; Elmiraev S. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish masalalari. Monografiya. –T.: 2017. -153 b.; Pardaev U.O‘. Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2018 y.; Yuldasheva N.V. Mahalliy budjetlarni tartibga solish usullarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati.-T.:2021.-56 b.; Turaboev I. O‘zbekiston Respublikasi norezident yuridik shaxslariga soliq solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2019. 45 b.

universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yer va mol-mulk solig‘ini hisoblash hamda undirish mexanizmini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlaridagi rolini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi yer va mol-mulk solig‘ining tutgan o‘rni hamda ahamiyatini tahlil qilish;

yer va mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirishning ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish;

respublikamizda yer va mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etish;

yuridik shaxslarning yer va mol-mulk solig‘ini hisoblash xususiyatlari va korxonalar faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish;

jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk solig‘ini hisoblash mexanizmi va stavkalarini o‘zgarish tendentsiyalarini baholash;

mamlakatimizda ko‘chmas mulk solig‘ini hisoblash mexanizmini takomillashtirishda ilg‘or xorij tajribalarini qo‘llash istiqbollari tadqiq etish;

mahalliy budjet daromadlarini oshirishda yer va mol-mulk solig‘idan oqilona foydalanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash va undirish mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Mahalliy budjet daromadlarini yer va mol-mulk soliqlari hisobidan oshirishda soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tanlab olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida statistik va iqtisodiy tahlil usullari, tahlil, sintez, SWOT tahlil, qiyoslov, ijtimoiy so‘rov usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko‘p kvartirali uylarga bevosita bog‘liq bo‘lgan binoning nolinch qavati (yerto‘la)dagi avto saqlash joyi kabi avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq obyektiga kiritilishi taklif qilingan;

ko‘chmas mulk obyektining 1 kv. metr qiymati belgilangan eng kam qiymatdan past bo‘lganda, ko‘chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirish, hamda soliq to‘lovchi tomonidan o‘tgan ikki yilda o‘tkazilgan mustaqil baholash natijalari soliq bazasi tan olinishi taklif qilingan;

ko‘chmas mulk obyekti bo‘lgan binolar va inshootlarga nisbatan soliq bazasini hisoblashda 1 kv. metr uchun eng kam qiymat kiritilishi bilan ayrim hududlarda joylashgan korxonalarining bino va inshootlariga nisbatan 0,5 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi koeffitsient kiritish mexanizmi takomillashtirilgan;

tadbirkorlik subyektlarining istiqbolli rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini-Kadastr agentligi organlari ma’lumotlari asosida hisoblab chiqarish va soliq hisobotini shakllantirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turar joy bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ammo alohida foydalanilayotgan avtomashina saqlash joylari boshqa mulklar kabi soliqqa tortilishi orqali barcha mulk egalari uchun teng va adolatli yondashuv yaratilishiga hissa qo‘shgan;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini real qiymatlaridan kelib chiqib soliq solinadigan bazaning takomillashtirilishi ko‘chmas mulk obyektlarini to‘liq qamrab olish va soliq solishning adolatlilik tamoyilini ta‘minlashga xizmat qilgan;

ayrim hududlarda joylashgan korxonalarining bino va inshootlariga nisbatan kamaytiruvchi koeffitsient kiritish mexanizmi shakllantirilgan;

mol-mulk obyekti joylashgan hududda yuridik shaxslarning yer solig‘ining to‘lanishi orqali mahalliy budjet daromadlari bazasini kengayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. amalga oshirilgan ilmiy yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba–sinov ishlari samaradorligining matematik–statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, shuningdek, soliq qo‘mitasi amaliy ma‘lumotlarining tahlillari natijalari asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan asosiy yo‘nalishlarni amalga oshirishda, shuningdek, mahalliy budjetlar daromadlarini barqarorlashtirishda yer va mol-mulk soliqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish tartibga solishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan soliq xizmati organlari tomonidan yer maydonlari va mol-mulkarni soliqqa tortishni takomillashtirishga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishga doir normativ-huquqiy hujjatlar, amaliy chora-tadbirlar va yo‘l xaritalarini ishlab chiqish, oliy o‘quv yurtlarida “Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi va mutaxassisligidagi fanlarning, xususan “Ichki soliqqa tortish”, “Soliq siyosati”, “Iqtisodiyotni soliq vositasida tartibga solish”, “Qiyosiy soliqqa tortish” kabi fanlarning o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yer va mol-mulk solig‘ini hisoblash hamda undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ko‘p kvartirali uylarga bevosita bog‘liq bo‘lgan binoning nolinch qavati (erto‘la)dagi avto saqlash joyi kabi avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq obyektiga kiritilishi taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-sonli Qonunida o‘z aksini topib va Soliq kodeksining 420-moddasi tegishli o‘zgartirish kiritilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 27-iyun 16/1-61977–son ma‘lumotnomasi). Natijada, davlat byudjetiga tushumlar ortib, soliq bazasi kengayishiga, shuningdek, ushbu mulklardan foydalanishda adolat va shaffoflik tamoyillari ta‘minlanib, ularni rasmiylashtirish va hisobga olish tizimi yaxshilashiga olib kelgan;

ko'chmas mulk obyektining 1 kv. metr qiymati belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lganda, ko'chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirish, hamda soliq to'lovchi tomonidan o'tgan ikki yilda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalari soliq bazasi tan olinish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 27-iyun 16/1-61977–son ma'lumotnomasi). Natijada, ancha yildan beri bino va inshootlarini baholatmagan 4,9-mingta soliq to'lovchilar 7,1-mingta ko'chmas mulk obyektlarini mustaqil baholatib, soliq ma'muriyatchiligining takomillashishiga erishilgan;

ko'chmas mulk obyekti bo'lgan binolar va inshootlarga nisbatan soliq bazasini hisoblashda 1 kv. metr uchun eng kam qiymat kiritilishi bilan ayrim hududlarda joylashgan korxonalarining bino va inshootlariga nisbatan 0,5 gacha bo'lgan kamaytiruvchi koeffisient kiritish mexanizmini takomillashtirishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 27-iyun 16/1-61977–son ma'lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i KenGESi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,5 gacha bo'lgan kamaytiruvchi koeffisient kiritilgan, hamda 26095 ta korxonalar tomonidan kamaytiruvchi koeffisient qo'llanilgandan so'ng hisoblangan soliq summasi 1305,6 mlrd. so'mdan 965,0 mlrd. so'mga kamayganligi hisobiga soliq to'lovchilar ihtiyorida 340,6 mlrd. so'm mablag' qolgan;

tadbirkorlik subyektlarining istiqbolli rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini-Kadastr agentligi organlari ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarish va soliq hisobotini shakllantirish yo'nalishlari ishlab chiqishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentyabrdagi "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6307-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 27-iyun 16/1-61977–son ma'lumotnomasi). Natijada, soliq solish tizimining raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilishi ta'minlash orqali yer resurslaridan oqilona foydalanish, soliq intizomini oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali ularning samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, OAK e'tirof etgan milliy jurnallarda 3 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy budjet daromadlarini tartibga solishning ilmiy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda yer va mol-mulk solig‘ining joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi, raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida mahalliy soliqlar bo‘yicha soliq ma’muriyatchiligining hususiyatlari, yer va mol-mulkni solig‘ini soliqqa tortishning xorijiy tajribalari masalalari o‘rganilgan.

Mahalliy budjetlarda shakllantirilgan moliyaviy resurslar asosan ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga, nafaqalar to‘lashga, infratuzilmani rivojlantirishga, markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga va boshqa qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga yo‘naltiriladi. Shu sababli soliqlarni belgilangan muddatlarda undirish muhim ahamiyat kasb etadi. Budjet daromadlari tarkibida tartibga soluvchi soliqlar mezonlari va me‘yorlarini to‘g‘ri belgilash, shuningdek, mahalliy budjet mablag‘larining taqsimlanishidagi qator muammolar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi.


Respublikamiz davlat budjet tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mahalliy budjetlar davlat hokimiyatining mahalliy organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun moliyaviy asos yaratadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab va ehtiyojlarni to‘laroq hisobga olish, shuningdek, davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budjet daromadlarini oshirish va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishini ta‘minlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

Mulklarni soliqqa tortishning umumiy tartibi doirasida mulklar asosan ikki guruhga: ko‘chmas va ko‘char mulklarga ajratilib soliqqa tortiladi. Ko‘chmas mulklarga yer uchastkalari, ular ustida barpo etilgan bino va inshootlar hamda boshqa doimiy joylashgan qurilishlar kiradi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, ko‘char mulklar ham o‘z navbatida yer bilan bog‘liq va yer bilan bog‘liq bo‘lmagan mulklarga ajratilishi mumkin. yer bilan bog‘langan, ya‘ni yerda joylashadigan va harakatlanadigan ko‘char mulklarga stanoklar, uskunalar, transport vositalari, katerlar, yaxtalar va boshqa shunga o‘xshash obyektlar kiradi. Yer bilan bog‘lanmagan mulklarga esa aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, patentlar va intellektual mulk ob'ektlari kiradi. Tabiiyki, yer bilan bog‘lanmagan ko‘char mulklar, ayniqsa qimmatli qog‘ozlar va intellektual mulk kabi boyliklarning hisobini yuritish murakkabroq jarayon bo‘lib, shu sababli jahon amaliyotida mulkiy soliqqa

tortishning asosiy obyekti sifatida ko'chmas mulklar va yerga bog'lanmagan ko'char mulklar namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha mahalliy darajada davlat moliyaviy manbalarini shakllantirish jarayonida yer va mol-mulkka nisbatan belgilangan soliqlar orqali tushumlar yig'ish tizimini ifodalaydi. Mahalliy budjet daromadlari tarkibida yer va mol-mulk solig'i muhim o'rinni egallab, hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish va umumiy hududiy rivojlanishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, bu soliqlar mahalliy boshqaruv organlariga moliyaviy mustaqillik va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatini beradi.



1-rasm. Soliqqa tortishda mol-mulkni tasniflanishi⁵

Mamlakatda yuritilayotgan soliq siyosatining amalda samaradorligini ta'minlashning asosi hududlar miqyosida differentsial soliq siyosatini amalga oshirish zaruratini taqozo etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, soliq siyosatining o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari majmuasi quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: rivojlanish tamoyillari (maqsadni aniqlash, izchillik, barqarorlik, tizimlilik, ijtimoiy adolat, universallik, qonuniylik, aniqlik, birlik, moslashuvchanlik, farqlash, tenglik); mexanizmlar (budjet, soliq, investitsiya, innovatsion, inqirozga qarshi, rag'batlantiruvchi, jazolovchi); hamda vositalar (me'yoriy-huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, soliq).

Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni yanada kuchaytirish maqsadida hududlarda mavjud muammolardan kelib chiqqan holda chora-tadbirlarning belgilanishi va ilmiy asoslangan strategik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida hududiy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni kompleks tarzda amalga oshirishni talab qiladi.

⁵ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlarga doir ilmiy-nazariy qarashlar⁶

Mualliflar	Ilmiy yondoshuv va qarashlar
Q.To'xsanov	Mahalliy soliqlarni takomillashtirishda qonuniy asoslarni yaratish va soliq to'lovchilarni rag'batlantirishning ahamiyatini ta'kidlagan. U, soliqlarning o'zgartirilishi va boshqaruvning shaffofligini ta'minlash zarurligini qayd etgan ⁷ .
Sh.Saipnazarov	Mahalliy soliqlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ularning hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli haqida fikr yuritgan. U, soliqlarning mahalliy darajada to'planishi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirishga yordam beradi, deb hisoblaydi ⁸ .
O. Meyliyev	Mahalliy soliqlarni ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan baholagan. U, soliqlarni adolatli taqsimlash tizimini yaratish va kam daromadli guruhlarni qo'llab-quvvatlashni zarur deb hisoblaydi ⁹ .
A. Nazarov	Mahalliy soliqlarni moliyaviy siyosat bilan bog'lash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishni taklif qilgan. Uning fikriga ko'ra, soliqlarning mahalliy darajada to'planishi yer resurslari va ko'chmas mulkni boshqarish tizimi bilan chambarchas bog'liq. ¹⁰
A. Fedorov	Mahalliy soliqlar hududiy iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim moliyaviy manba hisoblanadi. U soliqlarni hududiy barqarorlik va mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash vositasi sifatida baholagan ¹¹ .
V.G. Panskov	Mahalliy soliqlarni boshqarishning shaffofligi davlat moliyaviy tizimining samaradorligini oshiradi. Soliq tushumlarining to'g'ri hisobga olinishi va ulardan maqsadli foydalanish hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi ¹² .
E.V. Popov	Mahalliy soliqlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va hududiy infratuzilmani rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Soliq stavkalarining moslashuvchanligi hududiy budjetlarni to'ldirishda muhim omil hisoblanadi ¹³ .
L.P. Pavlova	Mahalliy soliqlarning yig'ilish samaradorligini oshirish uchun soliqqa tortish tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta'kidlagan. Bu tizimning shaffofligi va soliq tushumlarining oshishiga yordam beradi ¹⁴ .
R. Musgrave	Mahalliy soliqlar davlatning iqtisodiy funksiyalarini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib, ular orqali davlat o'zining fiskal siyosatini hududiy darajada amalga oshiradi ¹⁵ .
Ch. Tiebout	Tiebout modeliga ko'ra, fuqarolar turli hududlar o'rtasida harakatlanib, o'zlariga mos keladigan soliq va xizmatlar to'plamini tanlaydilar, bu esa mahalliy hukumatlarni samarali soliqlarni joriy etishga undaydi ¹⁶ .

⁶ Muallif ishlanmasi.

⁷ Q.To'xsanov. "Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati, -T.TDIU, 2023.11b.

⁸ Sh.Saipnazarov. "Taxation I" nomli darsligi. -T.: ISFT, 2024. 36 b.

⁹ O.Meyliyev. "Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish", Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati T.: Moliya, 2022. 12 b.

¹⁰ A. Nazarov. "Ko'chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirish". -T. 2021 y. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. 2021.13b.

¹¹ A. Fedorov. Охота на простака. Экономика манипуляций и обмана = Phishing for Phools: The Economics of Manipulation and Deception. — М.: ООО «Mann, Ivanov i Ferber», 2017. , 2016. — 167 с. (стр. 5).

¹² V.G.Panskov. <https://cyberleninka.ru/article/n/nastroyka-rossiyskoy-nalogovoy-sistemy-neobhodimost-problemy-puti-resheniya>. (стр. 8)

¹³ E.V. Popov. Monografiya. Rinochniy potentsial predpriyatiya. — М.: Экономика 2002.559 s.

¹⁴ L.P. Pavlova. (2016) tsitruetsya: 21 — page 1. page 2. the. intelligent. investor. a book of practical counsel. revised edition. Benjamin.

¹⁵ Richard A. Musgrave (1959). The Theory of Public Finance, p. ix. 159.

¹⁶ Tiebout C. An Economic Theory of Fiscal Decentralization / In: NBER, Public Finances, Needs, Sources and Utilization. — Princeton (Univ.Press), 1961. — P. 79-96.

Dissertatsiyaning “**Mahalliy budjet daromadlarining shakllantirilishida mahalliy soliqlarning tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida mahalliy soliqlarning mexanizmini amaldagi holati tahlili, ko‘chmas mulkni bozor qiymatidan kelib chiqib hisob-kitob qilish bazasini tahlil qilishning o‘ziga xos jihatlari va ularning sifat ko‘rsatkichlarini baholash usullari ochib berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirishdagi ijobiy o‘zgarishlar va soliq qonunchiligini erkinlashtirish, soliq to‘lovchilar huquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish bo‘yicha ko‘rilayotgan tadbirlar, soliq bazasini kengaytirish hamda budjetga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni ko‘paytirish imkoniyatlarini bermoqda.

Amaliyotda mahalliy budjet daromadlari asosan bevosita mahalliy budjetga tushuvchi daromadlar hamda yuqori tashkilotdan ajratma sifatida keladigan daromadlardan iborat bo‘ladi.

Soliq kodeksining 420-moddasiga kiritilgan o‘zgarishlarga asosan 2023-yil 1-yanvardan ko‘p kvartirali uylarga bevosita bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq obyektiga kiritilishi belgilandi¹⁷. Buning natijasida budjetga qo‘shimcha soliq tushumlari tushishiga erishiladi.

2-jadval

Ko‘p kvartirali uylarga bevosita bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylaridan budjetga tushishi rejalashtirilgan soliq miqdori to‘g‘risida ma’lumot¹⁸


№	Toshkent shahar tumanlari nomi	Jami hisoblangan soliq (mln.so‘m)				
		Soliq to‘lovchi soni	Mol-mulk qiymati	Jami qiymat summasi	Soliq stavka	Mulk solig‘i Summasi
1	Bektemir tumani	615	42,0	25 830,0	0.31 %	8 007,3
2	Mirobod tumani	701	45,0	31 545,0	0.31 %	9 778,9
3	Mirzo Ulug‘bek tumani	656	48,0	31 488,0	0.31 %	9 761,2
4	Sergeli tumani	700	43,0	30 100,0	0.31 %	9 331,0
5	Olmazor tumani	550	48,0	26 400,0	0.31 %	8 184,0
6	Uchtepa tumani	400	49,0	19 600,0	0.31 %	6 076,0
7	Shayxontohur tumani	512	48,0	24 576,0	0.31 %	7 618,5
8	Yashnobod tumani	526	43,0	22 618,0	0.31 %	7 011,5
9	Chilonzor tumani	556	46,0	22 576,0	0.31 %	7 928,5
10	Yunusobod tumani	528	45,0	23 760,0	0.31 %	7 365,6
11	Yakkasaroy tumani	645	43,0	27 735,0	0.31 %	8 597,8
	Jami	6389	-	289 228,0	0.31 %	89 660,8

2-jadval ma’lumotlari tahlili ko‘rsatishicha 2024-yilda jismoniy shaxslarning mol-mulki obyektiga kiritilgan ko‘p kvartirali uylarga bevosita bog‘liq bo‘lgan

¹⁷ Ushbu taklif tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi 2024-yil 27-iyun 16/1-61977-sonli ma’lumotnomasi.


¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

avtomashina turar joylari soni 6389 tani, ularning jami mulk qiymati 2892280,0 mln.so‘mni tashkil etib va mulk solig‘i summasi 896606,8 mln.so‘m miqdorida hisoblangan. Buning natijasida mahalliy budgetga qo‘shimcha mol-mulk solig‘i kelib tushishi ta‘minlanadi.



2-rasm. Davlat budgeti daromadlari tarkibida respublika va mahalliy budgetlarining ulushi va dinamikasi¹⁹, foizda

2-rasm ma‘lumotlaridan mahalliy budget daromadlarining o‘shishi, konsolidatsiyalashgan budget daromadlari o‘shishi bilan taqqoslanganda, 2016-yilda mahalliy budget daromadlari, konsolidatsiyalashgan budget daromadlarining 33,2 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda deyarlik ikki barobarga kamayib 18,0 foizni, 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 15,5 foizni tashkil etgan.




3-rasm. Soliq solish maqsadida ko‘chmas mulklarning qiymati dinamikasi,²⁰ mlrd.so‘m

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3-rasm tahliliy ma'lumotlardan 2017-2024-yillarda budget daromadlari o'sib borgan bir vaqtda, uning tarkibidagi soliqlarning salmog'i keskin kamayib borganligi ko'rsatadi. Yoki soliqlarning ulushi 2017-yilda 46,5 mlrd.so'm ko'chmas mulk qiymati tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilda 387,5 mlrd.so'm, 2020-yilda 401,2 mlrd.so'm, 2022 yilda 455,6 mlrd. so'm, 2024-yilda 492,7 mlrd. so'm ko'chmas mulk qiymati tashkil etdi.



4-rasm. Mol-mulk solig'i bo'yicha tushumining budjetlardagi salmog'i²¹, foizda

4-rasm tahlili ma'lumotlari 2016-2024-yillarda mol-mulk solig'ining davlat budjeti va mahalliy budjet daromadlari salmog'idagi ulushlari juda ham past darajani tashkil etishi bilan birga ushbu soliq tushumining oxirgi yillarda keskin pasayish tendensiyasida bo'lganligi aniqlandi. Xususan, mol-mulk solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i 2016-yilda 3,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 3,3 foizni, 2020 yilda 1,5 foizni, 2022-yilda 2,0 foizni va 2024-yilda 2,5 foizni tashkil etgan hamda mol-mulk solig'ining mahalliy budjet daromadlaridagi salmog'i ham 2016-yilda 10,2 foizni tashkil qilib, 2018-yilda 11,4 foizni, 2020-yilda 7,1 foizni, 2022-yilda 8,5 foizni tashkil etgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 11,6 foizga tashkil etmoqda.

Bo'stonlik tumani hududida manzilli o'tkazilgan o'rganishda qamrab olingan 14 810 ta xonadonlarning 2162 tasida kadastr hujjatlari mavjud bo'lmaganligi va kadastr mavjud xonadonlarning 44 foizining kadastr qiymati belgilangan me'yoriy qiymatdan (42 mln.so'mdan) kam qiymatda baholanib soliq hisoblanyotganligi kuzatilgan. O'z navbatida 44 tasi kadastr hujjatida belgilanganiga nisbatan jami 23,3 gektar oshiqcha yer maydonlari egallab olinganligi aniqlangan²².


²¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ma'lumotlari bo'yicha tumanda 6468 ta xonadonlar dala hovli va xonadonlarini ijaraga berib daromad olayotgan bo'lsalarda, ulardan 18 foiz yoki 1157 nafari ushbu faoliyati bo'yicha soliqqa tortilgan. Shuningdek, 15 ta mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 2162 ta xonadonlarning kadastr hujjatlari mavjud bo'lmaganligi sababli yer va mol-mulk soliqlarini to'lamasdan kelayotgan bo'lsalar, 2686 ta xonadonlarning kadastr qiymati to'g'ri baholanmaganligi natijasida soliqlarni haqiqiy miqdoridan kam to'lab kelingan.

Mazkur muammolar Bo'stonlik tumanida tajriba tariqasida soliq solish obyektlarini hisobga olish va soliq ma'muriyatchiligining alohida tartibini joriy etishni talab qiladi.

O'z navbatida, mahalliy budjetlar tarkibida mahalliy soliqlar kamayishini bevosita yer solig'i tushumini jami budjet tushumlari bo'yicha tahlil qilinganda quyidagi natijalarni kuzatish mumkin.



5-rasm. Yer solig'i tushumining budjetlardagi salmog'i, foizda²³

5-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tadqiqot qilinayotgan 2016-2024-yillarda yer solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i 2016-yilda 2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 1,9 foizni, 2020-yilda 1,8 foizni, 2022-yilda 2,6 foizni va 2024-yilda 2,6 foizni tashkil etgan hamda yer solig'ining mahalliy budjet daromadlaridagi salmog'i ham 2016-2017-yillarda mos ravishda 6 foizni tashkil qilib, 2018-yilda 6,6 foizni, 2020-yilda 8,6 foizni, 2022-yilda 11,2 foizni tashkil etgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 12,4 foizga tashkil etmoqda. Kadastr agentligi tomonidan yer maydonlari bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar asosida yuridik shaxslarning yer solig'ini hisoblash va soliq hisobotlarini shakllantirishni avtomatlashtirish va takomillashtirish taklif qilingan.

²³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuridik shaxslarning yer solig'ini hisoblash uchun quyidagi umumiy formula qo'llaniladi:

$$Y_s = \sum(S_i \times T_i \times K_i), \quad i = 1 \text{ dan } n \text{ gacha (1)}$$

Bu yerda:

Y_s – yuridik shaxsning to'lanadigan umumiy yer solig'i;

S_i – yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yer uchastkasi maydoni (kv.m yoki ga);

T_i – tegishli yer maydonining soliq stavkasi (so'm/kv.m yoki so'm/ga);

K_i – yerning hududiy yoki funksional joylashuviga bog'liq tuzatish (koeffitsiyent);

3-jadval

2020-2024-yillarda yer solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'langan yer solig'i tushumining taqqoslama ko'rsatkichlari²⁴

t/r	Yillar	Soliq to'lovchi yuridik shaxslar			Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar		
		Soni	O'tgan Yilga nisbatan farqi	O'sish ko'rsatkichi	Soni	O'tgan Yilga nisbatan farqi	O'sish ko'rsatkichi
1	2020	4 095	-161	96,2	4 521 320	78341	101,8
2	2021	3 672	-423	89,7	4 656 635	135 315	103,0
3	2022	11 887	6 531	221,9	5 170 969	511 550	111,0
4	2023	74 707	61 820	579,7	6 126 235	955 266	118,5
5	2024	65556	-9151	87,7	6 333 574	207339	140,1

Yuqoridagi 3-jadval tahliliy ma'lumotlari 2020-2024-yillarda yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar soni 18 barobarga (jumladan, 2020-yilda 4095 tadan 2022-yilda 74707 taga), jismoniy shaxslar bo'yicha yer solig'ini to'lovchilar soni 1,4 (2020 yilda 4521,3 mingtadan 2024-yilda 6333,5 mingtaga) o'sgan bo'lsada, (faqat 2020 yilda koronavirus pandemiyasi sababli berilgan imtiyozlar tufayli soliq to'lovchilar soni 9151 taga kamaygan) ya'ni keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan soliq sohasidagi islohotlar natijasida yer solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soni keskin ortib borgan bo'lsada, lekin yuridik ular tomonidan to'lanadigan yer solig'i bo'yicha tushum soliq to'lovchilar soniga soliq tushumlarining o'sishi 1,7 foizni tashkil etib oldingi yilga nisbatan 0,3 foizga o'sganligini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda ko'chmas mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, 1kv.m uchun belgilangan minimal miqdordan past bo'lmagan qiymatda soliq hisob-kitobi uchun baza bo'lib xizmat qiladi. 1 kv.metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam miqdori Toshkent shahrida 3,3 mln so'm, Nukus shahri va

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

viloyat markazlarida 2,2 mln so‘m, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa 1,1 mln so‘mni tashkil etadi.

4-jadval

Binolar va inshootlar 1 kv.metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam miqdori²⁵

Hudud nomi	1 kv.m uchun minimal qiymat
Toshkent shahri	3,3 mln
Nukus shahri va viloyat markazlari	2,2 mln
Boshqa joylar	1,1 mln

Bu tartibning amalga kiritilishi avvalo kadastr hisobining to‘liqligiga va haqqoniy soliq bazasiga erishish imkonini beradi hamda bozor narxlari asosida aniqlanadigan kadastr qiymatiga o‘tishni nazarda tutadi. Bu esa o‘z navbatida, soliqni ko‘chmas mulk obyektlari qiymatidan kelib chiqib adolatli taqsimlashga erishish orqali mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta‘minlash, soliq to‘lovchilar uchun soliq yukini tenglashtirish hamda halol raqobat uchun teng sharoitlar yaratish imkonini beradi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi past tumanlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun mol-mulk solig‘i bo‘yicha kamaytiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash lozim va shu orqali ular ixtiyorida mablag‘lar qoldirish imkoniyati yaratiladi.

Respublikamizda amalga oshirilgan va davom etayotgan soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan islohotlar jarayonida yer solig‘iga katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, jahon amaliyotida bo‘lgani kabi respublikamiz zamonaviy soliq tizimida ham davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy e‘tibor qo‘shilgan qiymat, foydadan va aholidan olinadigan soliqlarga qaratilgan, ya‘ni soliq yukining asosiy qismi mehnat va kapitalga to‘g‘ri keladi. Resurs soliqlari bajaradigan vazifalar borasidagi fikrlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda tabiiy resurs soliqlarini davlat budjeti daromadlarni shakllantirishdagi ahamiyatini oshirishga ham asosiy e‘tibor qaratilmoqda.

5-jadval

Yer solig‘ining YaIM dagi ulushi²⁶, foizda

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM ²⁷	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Davlat budjeti daromadlari jami	16,5	16,1	15,6	18,6	21,2	22,1	22,4
Resurs soliqlari, jami	1,5	1,4	1,5	2,4	3,3	3,2	2,8
shundan; yer solig‘i	0,3	0,4	0,3	0,4	0,4	0,4	0,6

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti tahlil etilayotgan yillarda muntazam oshib borgan. Shuningdek, Davlat budjeti daromadlari ham mos ravishda oshib,

²⁵ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: 412-moddasiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi. URL: <https://lex.uz/m/acts/4674902>.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari.

2018-2024-yillarda Yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 19 foizini tashkil etmoqda. Qayd etilgan yillarda yuqori soliq yuki 2023 hamda 2024-yillarga to‘g‘ri kelib 22 foizdan yuqorini tashkil etmoqda, eng kam soliq yuki 2020-yilga to‘g‘ri kelib 15,6 foizni tashkil etgan. Xuddi shunday o‘zgarish tendentsiyasi resurs soliqlari tomonidan Yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash jarayonida ham kuzatilgan. Xususan, resurs soliqlari 2018-2024-yillarda YaIMning o‘rtacha 2,3 foizini tashkil etgan. Tahlil etilgan yillarda o‘rtacha ko‘rsatkichdan 2018 va 2020-yillarda 0,8 foizga, 2021-yilda 0,9 foizga kamni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yildan boshlab esa o‘rtacha ko‘rsatkichdan ortiqni tashkil etib resurs soliqlarining ulushi oshgan.

Shuningdek, bu yana shu bilan ifodalanadiki, respublikamiz soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan yer solig‘ini budjet manfaatlari nuqtai-nazaridan takomillashtirishga qaratilgan yo‘nalishlarni belgilashda ham muhim ahamiyatga ega.

